

INTRALINGVAL LAKUNALARNI YUZAGA KELITIRUVCHI LINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK OMILLAR

Shaymardanova Aziza Raimjanovna

Termiz davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14492548>

Annotatsiya. Maqolada lakuna tushunchasi, uning tasnifi hamda muloqotda lakunarlikning namoyon bo'lishi, lakunalarni yuzaga keltiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: lakunarlik, muqobilsiz leksika, muloqot, tushunchaning ifodalanishi, bo'shliqlar.

LINGUISTIC AND EXTRALINGUISTIC FACTORS CAUSING INTRALINGUAL GAPS

Abstract. The article discusses the concept of a lacuna, its classification, and the manifestation of lacuna in communication, as well as linguistic and extralinguistic factors that cause lacunae.

Keywords: lacunae, non-alternative lexicon, communication, expression of a concept, gaps.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ВНУТРИЯЗЫКОВЫЕ ЛАКУНЫ

Аннотация. В статье рассматривается понятие лакун, ее классификация, проявление лакунности в общении, лингвистические и экстралингвистические факторы, вызывающие лакуны.

Ключевые слова: лакунарность, безальтернативная лексика, коммуникация, репрезентация концепта, пробелы.

Jahon tilshunosligida lisoniy tizimlilikni o'z qonuniyatiga va funksional relevant xususiyatiga ega til birliklarining o'zaro bog'liq va zid munosabatidan iborat hodisa sifatida tushuntirish, leksik-semantik, grammatik sathdagi shakl va mazmun asimmetriyasini izohlash e'tibordan chetda qolmagan. Shu tufayli, yangi pragmatik-nominativ paradigma ta'siri o'laroq, milliy konseptosfera birliklari orasida lingvomadaniy jamiyat muloqoti uchun relevant hisoblangan fikriy obrazlarning faollashuvi masalasi jahon tilshunoslarining diqqat markazidagi masalalardan biri hisoblangan.

Dunyo tilshunosligida lakunarlik muammosining aniqlanishiga: 1) tizimiy ziddiyatlarga doir izlanishlar; 2) kontrastiv va qiyosiy tadqiqotlar; 3) mental jarayonlarda lisoniy aloqadorlikni

nerv aloqalari tarzida tushuntiruvchi kognitiv tadqiqotlar sabab bo'ldi. Lisoniy tizimdagi ushbu "bo'sh hujayralar" – zaif bo'g'inlar ko'proq leksik-semantik, grammatik sathda kuzatilishi esa bu yo'nalishdagi izlanishlarni yanada rivojlantirish talabini qo'yimoqda. Lakunar birliklarni tasniflashda va konseptlar asosida tadqiq etishda til sistemasida qaysi elementlarning zaifligi va unga begona ekanligini hisobga olish muhim. Ushbu omil mazkur tizimning o'xshash tizimlarga nisbatan o'ziga xosligini uning funksiyasi, keyingi rivojlanish tendensiyalarini ham ma'lum darajada belgilaydi.

Til tizim sifatida ichki paradigmalari qanday birlik va shakllar bilan to'ldirilganligi bilan emas, balki qaysi "hujayralar" to'ldirilmaganligi, nima uchun to'ldirilmaganligi va "bo'sh hujayralar"da joylashishi kerak bo'lgan birliklar va shakllar qanday ko'rinishda bo'lishi kerakligi bilan xarakterlanadi¹. Bu bizga til va uning evolyutsiyasidan muqobillarini izlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, "bo'sh hujayralar"ning konfiguratsiyasini aniqlash tilning rivojlanishi davomida yo'qolgan birliklar va shakllarning ko'rinishini qayta tiklashga yordam beradi².

Tilda bunday bo'shliqlarning mavjudligi esa tilshunoslikda oldindan ma'lum bo'lib, bu holatni Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida turkiy va forsiy so'zlarni qiyoslashda muayyan tilda ayrim tushunchani ifodalovchi so'zning mavjud bo'lmashligi bilan aniq misollar tahlilida tushuntirgan.

Lakuna muloqot jarayonida muayyan madaniyatning boshqa madaniyat vakili tomonidan to'liq yoki qisman anglashilmaydigan o'ziga xos milliy unsuri³ bo'lib, ushbu tushuncha, ya'ni lakunarlik hodisasi turli fan sohalari tomonidan o'rganilgan. Lisoniy tizimdagi ushbu "bo'sh hujayralar" – zaif bo'g'inlar ko'proq leksik-semantik sathda kuzatilishi esa bu yo'nalishdagi izlanishlarni yanada rivojlantirish talabini qo'yimoqda.

Lakunologiya fan yo'nalishi sifatida umumiy ma'noda (kognitiv tilshunoslik chegarasida) o'z ichiga olgan prototipik birlik – "lakuna" termini bilan ishlaydi. Ushbu birlik sistemaviy qayta qurish, o'zgarish va okkazional xususiyatlarga ega. Jahon tilshunosligida bu tushuncha tilning leksik tizimidagi "bo'sh katakchalar", "ochiq joy", "bo'shliqlar", "tushunmovchilik", "yo'qlik" kabi so'zlar orqali ifodalangan⁴.

S.A.Askoldov-Alekseyev, D.S.Lixachev, Y.S.Stepanov, Y.A.Sorokin, E.S.Kubryakova, A.P.Babushkin, Z.D.Popov, I.A.Sternin kabi tilshunoslarning bilim va g'oyalari, shuningdek, L.S.Vigotskiy, N.I.Jinkin, I.N.Gorelov, N.M.Bextereva, A.A.Leontev, A.A.Zalevskaya,

¹ Савицкая Е.В. Английские языковые лакуны в свете интралингвистического подхода: Дисс. кандидата филол. наук. – Самара, 2015.– С. 3.

² O'sha manba: .– С. 3.

³ Zokirov M., Majidova R., Sultonova Sh. O'zbekcha – ruscha – inglizcha lingvistik atamalar muxtasar lug'ati. – Toshkent, 2016.

⁴ Shaymardanova A. Lakuna hodisasi va uni kompensatsiyalashning lingvistik imkoniyati. Наука и инновация, (2023). 1(4), 106–107. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/13605>

A.R.Luriya, M.Turker, N.Q.Jusipov, B.T.Kulbayevalarning olib borgan tadqiqotlari, o'tkazgan tajribalari shuni ko'rsatadiki, lakuna aqliy kategoriya, ongda mavjud bo'lgan tushuncha, fikrlashdagi bir jarayon, hodisa mahsulidir. G.V.Bikova ta'kidlaganidek, u tilda "universal kod birliklari – kodlangan tushunchalar"⁵ orqali amalga oshadi.

Aytish joizki, tafakkurning in'ikosi insonning faqatgina qarashlarida emas, tilida ham aks etadi. Demak, o'zining milliy manzarasiga ega madaniyat vakillarining nutqida uchrovchi, biror nomga ega tushunchalarning o'zga tilda lug'aviy ekvivalenti uchramasligi yoki boshqa tilga nisbatan ayrim farqlarga ega bo'lish hodisasi "lakunarlik"dir. Ushbu hodisa haqida K.Popper "…biz hammamiz o'ziga xos intellektual qamoqxonada yashaymiz, uning devorlari esa bizning tilimizning turkumiy qoidalaridan qurilgan. Bu juda g'alati qamoqxona bo'lib, biz o'zimizning qamoqda ekanligimizni anglay olmaymiz. Biz buni faqatgina madaniyatlar to'qnashganidagina fahmlaymiz"⁶, – degan bo'lsa, S.A.Shvachko "… lakunalar – sof bo'shliqlar degani emas, bu go'yo tilshunoslik osmonidagi yulduzlar yomg'irining izlaridir", – deydi⁷.

Tilshunoslikda lingvomadaniy tabiatli "lakuna" tushunchasi turlicha izohlangan. Shu sababli lakunani biz keng ma'noda madaniyatning o'ziga xos *milliy elementi* deymiz. Lakunalar ma'lum madaniyat egalarining nutqida voqelanadi va boshqa madaniyat vakillari tomonidan aniq anglanmaydigan yoki qisman begona hisoblangan birlikdir. Ayrim manbalarda tor ma'noda, "lakuna" yoki (*lingvistik lakuna*) deyiladi va lug'at tarkibida ma'lum tushunchani anglatuvchi so'zlarning mavjudmasligini ifodalaydi.

Tilshunoslikda *lakuna* atamasini birinchi bo'lib, kanadalik J.Darbelne va J.P.Vine kabi olimlar 1950-yillarning oxiri, 1960-yillarning boshlarida ilmiy muomalaga kiritgan bo'lib, ular mazkur hodisaga: "*Il y a lacune chaque fois qu'un signifié de L. D. (langue de départ) ne trouve pas de signifiant habituel dans L. A. (langue d'arrivée), p. ex., l'absence d'un seul mot pour rendre "shallow" (peu profond)*"⁸, ya'ni "bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi"⁹ – deya ta'rif berishadi. Tadqiqotchilar lakunalarning asosiy ikki turini ajratadilar: **intralingvistik** va **tillararo**.

⁵ Быкова Г.В. Лакунарность в условиях одноязычной ситуации и межкультурном диалоге. – С.101. lakunarnost-v-usloviyah-odnoyazychnoy-situatsii-i-mezhkulturnom-dialoge.pdf

⁶ Поппер К. Крутой стол: что такое лингвокультурология? // Мир русского слова. 2000. -№2. – С.42.


⁷ Швачко С.А. Статус лакун в языке и речи. Когниция, коммуникация, дискурс. – 2012. – № 4. – С. 84. <http://sites.google.com/site/cognitiondiscourse/>.

⁸ Vinay J.P. Darbelnet J. Stylistique comparée du français et de l'anglais. Paris, 1958, p. 10; Вине Ж.П., Дарбелне Ж. Сопоставительная стилистика французского и английского языков. Метод перевода. – Париж, 1958. – С. 3.

⁹ Shaymardanova A.R. Маданий лакунанинг мулоқотдаги ўрни ("Янга" тушунчаси мисолида)// UZA ILM-FAN// –Т., 2021.<https://cdn.uz.uz/2021/12/22/11/27/yvJ5Sm6BRgLnUMuC191oujvavOskgHd.pdf>

Intralingvistik (bir til tizimidagi) **lakuna** – ma’lum bir leksik paradigmada ma’nosiga ko‘ra o‘xshash birliklar talab etilsa-da, lekin o‘sha birlikning yo‘qligi bo‘lsa, **tillararo lakuna** – bir til tizimida bor, ammo o‘zga tillar tizimida nomlanuvchi so‘zning mavjud emasligidir¹⁰.

Lakunarlikning yuzaga chiqishiga sabab bo‘luvchi quyidagi omillar mavjud (1-rasm).



1-rasm. **Lakunarlikni yuzaga chiqishiga sabab bo‘luvchi omillar**

Lakunalar bir til leksikonida ifodalanmasa-da, o‘zga til vakillari u haqida tushunchaga ega bo‘lishadi. Bunday farqlash esa, realiya va lakunalar boshqa-boshqa hodisalar ekanligini isbotlaydi.

Absolyut lakunalar sifatida, boshqa tillarda (aytaylik xitoy, koreys tili uchun) aynan muqobilini berib bo‘lmaydigan o‘zbek tilidagi *rais, daha, mahalla, guzar, kayvoni, oqsoqol, baxshi, yor-yorchi, yallachi, allachi, laparchi, go‘yanda, bakovul, roviy, kushxona* kabi so‘zlarni ko‘ramiz. O‘zga tilning “semantik xaritasi”da bunday so‘zlar o‘rnida faqat “bo‘shliq” bo‘ladi.

Nutqimizda forschadan kirgan *xirs* so‘zi “ayiq” degan ma’noni anglatadi: *xirsday yigit, xirsday baquvvat kabi. Ammo, xirs* so‘zi *ayiq* ma’nosida o‘xshatishli birikmalarda uchragani bilan, “hayvon” ma’nosida ishlatilmaydi. Masalan, *hayvonot bog‘iga xirs keltirildi*, deyilmaydi. Yoki, hurmat yoki erkalatishni ifodalovchi *poshsha* (*podshoh* so‘zining o‘zgargan shakli) tarkibli *kelinposhsha, qizposhsha, oyposhsha* so‘zlar mavjud. *Obdan* so‘zi *rosa, xo‘p; juda ham; butunlay; mukammal suratda* ma’nolarida ishlatiladi: *obdan o‘yladi, obdan tayyorlandi, obdan bezatdi, obdan o‘rgandi* (shu o‘rinda, *obdon* shaklida ishlatilsa xato bo‘lib, forsha *ob* va – *don* qo‘shimchasidan yasalsa, “suv idish” degan ma’noni beradi). Bu so‘z ko‘p ishlatilgani bilan ko‘pincha xato shakli qo‘llaniladi va ma’nosi anglanmaydi.¹¹

¹⁰Hale K. Gaps in grammar and culture // Linguistics and anthropology: in Honor of C.F. Voegelin. – Jisse.

¹¹https://daryo.uz/2022/03/09/tilimizni-bilamizmi-chalkashtiruvchi-paronimlar-bizni-shakli-va-talaffuzi-bilan-adashtiradigan-sozlar/?utm_source=@daryo

Etnografik lakunalar milliy mentalitetni ifodalovchi urf-odatlar, qadriyat, marosim va an'analarni ifodalovchi lug'aviy birliklar bo'lib, Sh.Usmonova "Madaniy makon va uni tarkib toptiruvchi atrof-muhit, turmush tarzi, bilimlar zaxirasi, madaniy fond kabi unsurlar boshqa madaniyat jamoasining vakili uchun lakuna hosil qiluvchilar sanaladi"¹², deya ta'kidlaydi.

Ko'pincha tarjima qilinganida mazkur so'zlar asl holicha keltiriladi.

Madaniy lakunalarning o'ziga xos turlaridan biri etnografik lakunalardir. Masalan: *anbar*, *badik*, *baxshi* (*doston kuylovchi emas*), *jevak*, *jig'a*, *miyoncha*, *nomgo'y*, *tavanboshi*, *uchoq*, *taxurar*, *tishqoli*, *to'kma* kabi etnografizmlar haqida hamma ham ma'lumotga ega emas.

Mutlaq etnografik lakunalarni aniqlash uchun quyidagi belgilarga e'tibor qaratish yetarli:

– Mutlaq etnografik lakunalarning majburiy (uzual) lingvistik ifodasi yo'q.

– Tegishli tushunchani ifodalash uchun tillardan birida so'z yoki ibora topilmaganda, ushbu konsepsiyani tasviriyl ifoda orqali uzatish imkoniyati qoladi.

Shunday qilib, lakunarlik muammolari lingvistikada, tildagi ayrim "hujayra"larning to'ldirilishi va to'ldirilmasligi sabablarini aniqlash, madaniyatlararo aloqa jarayonidagi to'siqlar, noaniqlik va tengsizlik kabi maqsadlar bilan bog'liq.

Bo'shliqlar – kognitiv jarayon va kognitiv faoliyatni buzadigan, gnoseologik illyuziya va xatolarni keltirib chiqaradigan omillardir. Boshqa tomondan, lakunalarning namoyon bo'lishi muammolar, qarama-qarshiliklar, ya'ni kognitiv faoliyat va ilmiy bilimlarni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarning boshlang'ich nuqtalari bo'lib xizmat qiladi.

Tilda ifodalanadigan, nomlanadigan tushuncha semema, ya'ni "ma'no" maqomiga ega bo'ladi. Lakunalar esa til tizimidagi kamchilik sifatida qaralib, "bo'sh leksema" maqomiga ega bo'lgan hodisadir.

¹² Usmonova Sh. Lingvokulturologiya, darslik. – Toshkent: 2019. –B. 134 .